

GLABALLASHUV SHAROITIDA MIGRATSIYANING JAMIYAT HAYOTIGA TA'SIRI



Y.B.Qodirova

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada glaballashuv sharoitida dunyo bo'ylab migratsion jarayonlarning jamiyat hayotiga ijobiy va salbiy ta'siri natijasida oila, jamiyat miqyosida bir qator tadqiqot natijalari havola etiladi. Maqolada ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, ya'ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatlarga ko'chib yurishi natijasida odamlarning katta-katta guruhlari bilan bog'liq voqea-hodisalar natijasida ko'chib o'tgan hududiga o'z ijtimoiy-axloqiy qarashlari bilan ta'siri haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, shaxslararo munosabatlar, globalashuv, moslashish, shaxs, inqiroz, mehnat migratsiyasi, madaniyat, immigrant, psixologik salomatlik, farovonlik, oila, integratsiya.

Kirish. Bugungi globalashuv sharoiti dunyoda migratsiya jarayonlarini tobora keskinlashtirmoqda. Jahon maydonida ro'y berayotgan voqea-hodisalar, jumladan aholining sonining o'sish sur'ati, turli mintaqalardagi siyosiy inqiroz va harbiy nizolarning vujudga kelishi, ayrim davlatlarda ro'y berayotgan tabiiy va texnogen xususiyatdagi ofatlar, global pandemiya sharoiti, rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o'rinlarining yetishmasligi, ish haqining insonlar kundalik ehtiyojini qondirish darajasidan pastligi, yoshlar orasidagi ishsizlikning yuqoriligicha qolayotgani kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan migrantlar soni 281 milliondan oshgan. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda 2,5 millionga yaqin fuqaro mehnat migratsiyasida bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda mamlakatimizdan xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan mehnat migrantlari soni 1,5 mln nafardan ziyod kishi (1540938 nafar) ni tashkil etgan. 2023- yilning 8 oyi davomida 28 ming 207 nafar O'zbekiston fuqarosi xorijiy davlatlarga manzilli va tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirilgan. Xususan, ularning eng ko'pi Rossiya, Janubiy Karea va Buyuk Britaniyaga ketgan. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonini huquqiy ta'minlash, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatdan chiqib ketayotgan fuqarolarimizni xorijda ishga joylashtirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligini ta'minlash, xorijdan mehnat faoliyatini amalga oshirib qaytgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va bandligini ta'minlash, shuningdek, ularning sog'lig'ini muhofaza qilish kabi vazifalarni samarali tashkil etishni taqozo qiladi.

Hozirgi kunda migratsion jarayonlarda ishtirok etayotganlarning soni keskin oshib borayotganini kuzatar ekanmiz, yaqin kelajakda ularning soni yanada ortishi bashorat qilinayotgani bejiz emas. Migratsiya ko'lami kengayishiga kambag'allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik va tushkunlikka tushish, turli xil nizolar, urushlar tufayli notinchlik, qo'rquv kabi omillar sabab bo'lmoqda. Migrantlar o'z tabiatiga ko'ra jamiyatning ishbilarmon va harakatchan a'zolari hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, migratsiya iqtisodiy o'sishga, millatlarning assimilyatsiyalashuviga, marginal madaniyatlar boyishiga olib kelgan. Migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligini ham inobatga olish zarur. Aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joyidan mahrum etadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan ham o'rganish talab qilinadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda, statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2021-yilning yanvar–dekabr oylarida 275,1 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 7,9 promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan 2,0 promillega oshgani kuzatilgan (2020-yilning yanvar–dekabr oylarida 5,9 promille bo'lgan). Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda 2021-yilda ko'chib ketish koeffitsiyenti qariyb 3 baravarga pasaygan. 2000–2020-yillarda O'zbekistondan 1 107 854 nafar fuqaro xorijiy davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketgan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida 2,262 nafar xalqaro migrant kelgan. O'zbekistonga kelgan xalqaro migrantlarning aksariyati Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (38.9%, 880 kishi), undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (24.5%, 554 kishi), Tojikiston (10.5%, 238 kishi), Qirg'iziston (5,1%, 116 kishi), Turkmaniston (1.6%, 37 kishi) va boshqa mamlakatlar (19.4%, 437 kishi) fuqarolari bo'lgan. Ko'chib kelgan migrantlarning yoshiga ko'ra, ularning 82.8 foizi mehnatga layoqatli yoshda, 9.4 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik (18 yoshdan kichik) va 7.8 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bo'lgan (O'zStat, 2023-yil).¹

Yuqorida keltirilgan raqamlar va fikrlardan migratsiya jarayoni nafaqat ish topish yuzasidan boshqa davlatga yoki shaharga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan shaxslarga, balki ularning farzandlari, yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular istiqomat qilayotgan muhitga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, migratsion munosabatlarning nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki ijtimoiy, ma'naviy, psixologik tabiatini o'rganish hamda mazkur jarayonning bugungi kun oilalaridagi barqarorlik, farovonlik ko'rsatkichlariga ta'sirini tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Migratsion jarayonlarni boshqarishda ushbu jarayonlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining 5 ta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Rivojlanayotgan davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
- 2) Sanoati rivojlangan davlatlar doirasidagi migratsiya;
- 3) Rivojlanayotgan davlatlar orasidagi migratsiya;
- 4) Sobiq sotsialistik davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
- 5) Ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislarning sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migratsiyasi.

Statistik ma'lumotlariga qaraganda, Evropa aholisi 2050 yilga borib, 128 mln.ga kamayadi, bunda Italiya – 16 mln., Germaniya – 23 mln., Rossiya – 33 mln. kishisini yo'qotadi. Eng ahamiyatlisi, Evropa umumiy aholisining 10% igina evropalik ildizga taqaladi. Migratsiya dunyoning barcha qismidagi odamlar orasida keng tarqalgan hodisa bo'lib, dunyodagi deyarli 7 kishidan 1 nafari xalqaro yoki ichki migrantdir. Xalqaro migratsiya bo'yicha global komissiyaning yaqinda e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, bugungi kunda xalqaro miqyosda 200 millionga yaqin muhojir bor, ularning qariyb 60 foizi rivojlangan mamlakatlarda, qolgan 40 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda migratsiya shu qadar xilma-xil bo'lib ketdiki, migratsiyani o'rganish mashhur sohalardan biriga aylandi.

EI hududida migratsion oqimni va o'zga madaniyatdagilar hamjamiyatini tartibga solish bo'yicha muayyan ishlar ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Evropaning deyarli barcha davlatlari OAVlarida va siyosiy debatlarida ushbu mavzu tez-tez ko'tarilmoqda.

Germaniya immigratsiya siyosati o'ziga xos maxsus qoida va an'analardan kelib chiqqan bo'lib, u ko'pgina Evropa davlatlarida qiziqish uyg'otdi.

Agarda 1973 yilda 3,9 mln. (GFR) xorijlik yashagan bo'lsa, 30 yildan so'ng bu ko'rsatkich, ya'ni 2002 yilda 7,3 mln.ni tashkil qildi. Germaniyalik muhojirlarning ko'pchiligi "uchinchi davlat" kishilari bo'lib, ular etnomadaniy nuqtai nazardan, ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi.

2000 yil 1 yanvardan kuchga kirgan "Fuqarolik to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, 2000 yilgacha muhojirlardan tug'ilgan bolalar bevosita nemis fuqaroligini qo'lga kiritadi. Balog'at yoshiga

¹ file:///C:/Users/ASUS/Desktop/O'zbekiston_-_Migratsiya_vaziyatiga_oid_hisobot_-_2023_yil_aprel.pdf

etguncha (18 yosh) ular ota-onalarining fuqaroligini saqlab turadilar, lekin 23 yoshgacha fuqarolikni aniq tanlashlari talab etiladi. Fuqarolik olishga ishsizlik nafaqasini oluvchilar, sudlanganlar da`vogarlik qila olmaydilar. SHuningdek, nemis tilini o`rganish bo`yicha test olish majburiy qilib qo`yildi. Umumiy hisobda 2000-2004 yillar oralig`ida 191107 ta muhojirlarning farzandlari nemis fuqaroligini qo`lga kiritishdi. Ularning ko`pchiligini etnik turklar tashkil qiladi.

Migratsiya aholi harakati bo`lib, uning uzunligi, tarkibi va sabablaridan qat`i nazar, odamlarning har qanday harakatini qamrab oladi. Migratsiya qochqinlar, ko`chirilganlar, iqtisodiy muhojirlar va boshqa maqsadlarda, shu jumladan, oilalarni birlashtirish uchun ko`chib o`tayotgan shaxslarning migratsiyasini o`z ichiga oladi.

Mehnat migratsiyasi migratsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Mehnat migratsiyasi odamning o`zini ish bilan ta`minlash maqsadida o`z uyidan yangi joyga ko`chishini anglatadi. Garchi mehnat migratsiyasi ichki yoki tashqi bo`lishi mumkin bo`lsa-da, tashqi yoki xalqaro mehnat migratsiyasi ichki mehnat migratsiyasidan ko`p bo`lgani uchun bugungi kunda e`tiborni tortmoqda. Bugungi kunda butun dunyo bo`ylab millionlab odamlar ko`chada yig`im-terim kabi oddiy mehnatdan tortib, kompyuter dasturlashgacha bo`lgan ishlar bilan shug`ullanmoqda. Birgalikda ularning soni sayyoramizdagi aholi soni bo`yicha beshinchi o`rindagi mamlakatga teng bo`ladi.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda, undagi muhim muammoviy masalalarning ham mavjudligini inobatga olish zarur bo`ladi. Ma`lumki, harakat faoliyati mobaynida aksariyat migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning huquqlari poymol qilinadi; aksariyat holatlarda o`zlari yo`nalish olgan manzil mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga nisbatan integratsiyalashuv qiyin kechishi mumkin; migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning malakali va zarur hisoblangan kadrlariga nisbatan arzon ishchi kuchi sifatida raqobatbardosh bo`lib, ularni ish joylaridan mahrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko`plab sabablarga ko`ra migratsiya holatin har tomonlama, jumladan sotsiologik o`rganish muhim mavzu hisoblanadi.

Mazkur migratsiyaning hajmidan tashqari yana bir muhim tomoni, ijtimoiy-siyosiy tomoni ham borki, u hozirgi vaqtda ham evropalik hisoblangan amerikaliklarning asosan kelib chiqishi afrikalik bo`lgan qullarning avlodlariga nisbatan qaysidir darajada ta`sir kuchiga ega ekanligidir. SHunday bo`lsa-da, AQSHga quldorlikning tugatilishidan so`ng ham Xitoy, Hindiston va Yaponiyadan juda ko`plab odamlar shartnoma asosida ko`chishdi va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Masalan, oxirgi statistik ma`lumotlarga ko`ra ushbu mamlakatga faqat Hindistonning o`zidan 1,5 million odam ko`chib kelgan. Hindistonlik migrantlar dunyo miqyosida o`zining intellektual salohiyati tufayli komp`yuter dasturlari ustasi sifatida tanilgan bo`lsa-da, biroq ularning Amerikadagi faoliyati Evropa mamlakatlari fuqarolariga tegishli plantatsiyalarda ishlash bilan bog`liqdir.

So`nggi paytlarda migratsiyani millatlararo va etnik-diniy nizolarni o`rganish tobora dolzarb bo`lib bormoqda. Millatlararo va harbiy mojarolarning kuchayishi qochqinlar va ichki ko`chirilganlar sonining ko`payishiga olib keladi. Shuning uchun bu guruhlar ko`plab ilmiy ishlarning obyektiga aylanadi. G.U.Soldatova va L.A.Shaygerov Rossiyadagi majburiy muhojirlarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi bo`yicha ko`p yillik tadqiqotlar olib borgan. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning metodologik asosi sotsial-madaniy yondashuv bo`lib, u akkulturatsiya nazariyasi, ijtimoiy o`ziga xoslik tushunchasi, millatlararo keskinlik va nizolar tushunchasi, etnopsixologik tadqiqotlar, g`arbiy madaniyatlararo psixologiyadagi vaziyatlar va shu kabi boshqa tushunchalarga asoslanadi. Ularning ilmiy izlanishlarida majburiy migrantlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshdan kechirgan jarohatlari va stressni yengishning o`ziga xos xususiyatlari, qabul qiluvchi jamiyat bilan munosabatlarning tabiati va boshqalar batafsil bayon etilgan.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi migratsiya oqimlarini boshqarish muammosi mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligini shakllantirishning ahamiyatli omillaridan biriga aylanmoqda. CHunki migratsiya (xususan, mehnat migratsiyasi) so`nggi vaqtlarda mintaqaning qator mamlakatlari uchun tahdidli xususiyat kasb etmoqda. Mintaqadagi migratsiya nafaqat o`zining misli ko`rilmagan ulkan miqyosi, balki aksariyat hollarda asosan faqatgina bir mamlakatga

– Rossiyaga yo`nalganligi bilan xarakterlidir. VMF ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya imigratsiya ko'lamiga ko'ra, kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Bu esa, Markaziy Osiyo mintaqasining deyarli barcha mamlakatlarini RF siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'lab qo'yadi.

Xulosa. Migratsion jarayonlarning oilaviy barqarorlik darajasiga ta'siri farzandlar va ota-ona munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaqin insonlarining boladan uzoqlashishi nafaqat uning ruhiy holatiga, balki o'qishi, turmush tarzi, shuningdek jismoniy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Yoshligida bola oddiy hissiyotlarni boshdan kechiradi. Yoshi ulg'aygani sayin u asta-sekin murakkab narsalarga duch keladi va ularni og'zaki bo'lmagan vositalar yordamida ifodalaydi. Ulg'ayish bilan ko'pincha his-tuyg'ularni ifoda etishni, hissiyotlarni nazorat qilishni va cheklashni, ularning sabablariga bo'ysunishni istamaslik boshlanadi. Hissiy beqarorlik bolaga dunyoni yetarlicha idrok etishga, o'z pozitsiyasini, dunyo bilan munosabatlar modelini shakllantirishga imkon bermaydigan buzilishlardir. Bunday muammolar odatda bolaning shaxsiy mojarolari fonida paydo bo'ladi. Ota-onaning farzanddan uzoqda bo'lishi undagi hissiy beqarorlik ko'rsatkichining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, o'smirlik davrida bu holat xarakter aksentuatsiyasini keltirib chiqarib, bola shaxsida atrof-olamga nisbatan negativ fikrlar paydo bo'lishini tezlashtiradi. Kuzatishlarimiz natijasida har bir migrant oila farzandlariga ota-onasining, yaqinlarining xorijda ekanligi o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaganini ko'rishimiz mumkin. Migrant oilalar farzandlarining hayotida qo'rquv, tashvish, tushkunlik mavjud. Ushbu davrning uzoq muddatli tajribasi ko'pincha salbiy xulq-atvor reaksiyalariga olib keladi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, mamlakatdan chiqib ketayotgan ishchi kuchi oqimining iqtisodiy zarari o'ta katta, degan uzil-kesil xulosaga kelish mumkin. Migratsiya natijasida mintaqa mamlakatlarining eng malakali mehnat zahiralari qatlamlarining yo'qotilishi milliy iqtisodiyotlarning uzoq muddatli jonlanish istiqbollariga putur etkazadi va ham ichki, ham xorijiy investitsiyalarning mehnat talab qiluvchi sohalarga kiritilishini kamaytirib yuboradi. Mehnat migratsiyasining hozirgi kundagi jarayonlari, agar qisqa muddat nazaridan qaraladigan bo'lsa, iqtisodiyotga pul va mahsulot zahiralari sezilarli darajada jamlanishi hamda mamlakat tashqarisida yaratiladigan so'ngra esa, mintaqa mamlakatlariga olib kelinadigan, import qilinadigan qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Otajonov A.A. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi sohasida kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir ayrim masalalar // Yurist axborotnomasi– Вестник юриста – Lawyer herald. – № 1. (2022) – Б. 116–121.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Ma'sul muharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 y.
3. Хрусталева Н.С. Психология миграционных процессов // Психология кризисных и экстремальных ситуаций: психическая травматизация и ее последствия. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2014. – С. 325–349.
4. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. Ma'sul moharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 y.
5. Zuberi D., Ptashnick M. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada // International Migration. 2012. – Vol. 50. – № 1. – P. 60–93.
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo'mita-yangiliklar/17361-demografik-holat-2021-yil-yanvar-dekabr>.